

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

OTEPBERGENOVA GUZZAL OMIRBAEVNA

I.YUSUPOV LIRIKASIDA TROPLARNING BADIYYLIK XIZMATI

10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contens of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Otepbergenova Guzzal Omirbaevna

I.Yusupov lirikasida troplarning badiiylik xizmati..... 3

Отелбергенова Гуззал Омирбаевна

Художественные функции тропов в лирике И.Юсупова..... 25

Otepbergenova Guzzal Omirbaevna

Artistic functions of tropes in the lyrics of I. Yusupov..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.04.2021.Fil.20.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

OTEPBERGENOVA GUZZAL OMIRBAEVNA

I.YUSUPOV LIRIKASIDA TROPLARNING BADIYYLIK XIZMATI

10.00.12 – Qoraqalpoq adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3691 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahibasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Orazimbetov Quanishbay
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bekbergenova Ziyada Utepovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dabilov Perdegaliy Abatbaevich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi muassasa:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «15» 01 kungi soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy, Tel.: (99861) 223-59-25), faks: (99861) 223-59-25, e-mail karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (246 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «24» 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil «24» 12 dagi № 11 raqamli reestr bayonnomasi).



P.A. Najimov

P.A. Najimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
v.v.b., filol.f.d., professor

J.O. Tanirbergenov

J.O. Tanirbergenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Z. Bekbergenova

Z. Bekbergenova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida poetik til, yozuvchi-shoirlarning badiiy olami, ularning asarlarida ishlatilgan badiiy vositalar, tasviriy usullar, asar badiiy saviyasining yuqori bo'lishida, badiiy vazifasini ta'minlashdagi xizmati va g'oyaviy mazmuni boyitishga munosabati masalalarini o'rganishga alohida diqqat-e'tibor berila boshladi. Qadim folklor asarlaridan boshlab hozirgi badiiy jarayondagi shoirlar ijodida ham badiiylikni ta'minlashda, chuqur g'oyaviy mazmuni boyitishda troplar samarali va unumli ishlatilib, poetik vazifani bajarib kelayotganligi ma'lum. Poetik til, tasviriy vositalar va lirik asardagi so'zning obrazlilik, turli xil ma'noviy qirralari, estetik ta'sirchanligi, his-tuyg'ularning emotsional yetkazilib berilish xizmati bo'yicha amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida milliy adabiyotni yangi usulda o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda. Badiiy so'z san'ati tarixida, ayniqsa, lirikada poetik til juda muhim jarayon bo'lganligi ma'lum. Lirik asarlarda troplar so'zlarning qo'llanilish ma'nosini kengaytirib, g'oyaviy mazmuni chuqurlashtirishi, boyitishi va emotsional-ekspressivlik, obrazlilik vazifasi bilan ko'zga tashlanadi. Poetikada troplarning badiiy vazifa bajarishi bilan birga, voqea-hodisalarni obrazli tasvirlash, lirik qahramon ichki olamini yoritish, umuman, lirikadagi badiiy jarayonni kompleks o'rganish, nazariy xulosalar keltirish borasidagi intilishlarning ancha kuchayishi mavzuning dolzarbligini begilaydi.

Elimizda mustaqillikning so'nggi yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar davrida milliy ma'naviyat jamiyatda har tomonlama inson tarbiyasiga xizmat qilib, «adabiyot va badiiy san'atga, madaniyatga e'tibor – bu eng avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor»¹ tendensiyasi asosida rivojlanish yo'liga o'tdi. Bugungi kunda xalqimizning ruhiy olamini rivojlantirishda adabiy ta'sir qilib kelayotgan I.Yusupovning lirik asarlari, uning poetik olami, lirikasida ishlatilgan troplarning badiiy vazifasini ilmiy o'rganish bo'yicha amalga oshirilib kelayotgan ishlar barkamol avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haqida»gi farmonlari va 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-sonli «Kitob mahsulotlarini nashrdan chiqarish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitobsevarlik va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot-tashviqot ishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida», 2018-yil 5-apreldagi PQ 3652-son «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

¹Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / Xalq so'zi. – Toshkent: 2017. 4 avgust, 153 (6847).

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Lirikaning poetik tili, tasviriy vositalari va usullari filologiya ilmida lingvistik va adabiyotshunoslik aspektida o‘rganilib kelinmoqda. Jahon ilmida V.M.Jirmunskiy, A.Kvyatovskiy, V.V.Vinogradov, A.N.Veselovskiy, S.Bocharov, N.K.Gey, N.A.Turanina, N.S.Trifonova, V.K.Xarchenko, D.G.Shatalov, Ye.P. Dulesov, Charl Balli, J.Vardzelashvili, Ortega Xi Gooset, A.M. Oganyan, Yu.V. Sinkovskaya, E.Kassirer, A.A.Potebnya, F.M.Selivanov, A.G.Varonova, S.A.Gubanova, N.G.Serebrennikova va h.k. olimlarning badiiy asarning poetik tilini, badiiy troplarning nazariyasi, badiiy obrazlilikni ta’minlashdagi vazifasi va his-tuyg‘ularni yetkazishdagi emotsional-ekspressiv xizmati bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini alohida ta’kidlash joiz². Mazkur olimlarning ilmiy-nazariy xulosalari, ayniqsa, troplarning poetik vazifasini belgilashdagi qarashlari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Turkiy xalqlar adabiyotshunosligida B.Sarimsoqov, U.S.Qobulova, R.Qo‘ng‘urov, G.Qobuljonova, Sh.Mahmarayimova, B.Xasanov, A.Sibanbaeva, J.Q.Boranbaeva, S.Karibaeva, L.Nurjekeeva, T.Qong‘irov, S.Ibragimov, K.Babaev va h.k. badiiy asarlarda troplarning strukturaviy tiplari, uslubiy, badiiy estetik ta’sirchanligi va emotsional-ekspressivligi, g‘oyaviy mazmuni boyitishdagi vazifasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan³.

²Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Наука, 1963. 256 с.; Избранные труды. Поэтика русской литературы. – Москва: Наука, 1976. 512 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. 406 с.; Бочаров С. Поэтика Пушкина. – Москва: Наука, 1974. 206 с.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. 408 с.; Квятковский А. Поэтический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. 376 с.; Гей Н.К. Художественность литературы. Поэтика. Стиль. – Москва: Наука, 1975. 472 с.; Туралина Н.А. Именная метафора в русской поэзии начала XX века. Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Белгород, 2000.; Трифанова Н.С. Метафора в ранней лирике Анна Ахматовой: «Вечер» - «Белая стая» - Anno-Domini». Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Екатеринбург, 2005.; Харченко В.К. Функции метафоры. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. 96 с.; Шаталов Д.Г. Метафорическое осмысление перевода. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2014.; Дулесов Е.П. Метафора в парламенском дискурсе (на материале ручей российских депутатов начала XX в) Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Ижевск, 2019.; Шарл Балли. Французская стилистика. – Москва: Государственное издательство иностранной литературы, 1961. – с 394.; Вардзелашвили Ж. О двойной сущности метафоры // Санкт-Петербургский государственный университет и Тбилисский государственный университет. Научные труды. Серия: филология. Выпуск IV. – СПб-Тб., с.66-67.; Ортега Х и Гоосет. Две великие метафоры // Теория метафоры. Сборник, – Москва: Прогресс, 1990. - с 68-81.; Оганьян А.М. Метафора как основной троп поэтической речи: на материале: англоязычной поэзии XX века. Диссертация на соискание ученой степени кандидата наук. – Москва, 2006. –с.206.; Кассирер Э. Сила метафоры // Теория метафоры.Сборник, – Москва: Прогресс, 1990. -с 41-42.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – с.341.; Варонова А.Г. Эпитеты и определение в языке Камозанса: Автореф. дисс.канд. филол.наук. – Москва, 1999.; Губанов С.А. Эпитет в творчестве М.И.Цветаевой: семантический и структурный аспекты: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Самара, 2009.; Серебренникова Н.Г. Механизм эпитета: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Тамбов, 2002.

³Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2004.; Қобуллова У.С. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида). Фил.фан. ном. илмий дар. олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент: 2007.; Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966; Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: 1977.; Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филология фанлари номзоди илмий дар. олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2000.; Махмарайимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida S.Axmetov, Q.Maqsatov, K.Mambetov, A.Bekbergenov, Q.Jarimbetov, Q.Orazimbetov, B.Genjemuratov, Sh.Abdinazimov, P.Najimov, B.Yusupova, E.Allanazarov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida asarlarda troplarning badiiy vazifasi bilan bog‘liq ba‘zi masalalari tadqiq etilgan⁴.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti istiqbol ilmiy tadqiqot dasturi «Qoraqalpoq adabiyotini tadqiq qilish va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari», «Zamonaviy filologiya fanlari taraqqiyot tamoyillari» mavzusidagi yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi I.Yusupov lirikasi poetik tilining o‘ziga xosligi, shoir lirikasining tili orqali qoraqalpoq adabiy tilining rivojlanishi, troplarning badiiy obraz yaratishdagi xizmati, badiiy vazifasi, emotsional-ekspressiv ta‘sirchanligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lirika poetik tilining nazariy asoslarini belgilash;

I.Yusupov lirikasining poetik tili orqali qoraqalpoq badiiy adabiy tilining taraqqiyotini o‘rganish;

shoir asarlarida shaxsiy ijodiy faoliyati bilan paydo bo‘lgan tasviriy vositalarni ilmga tatbiq qilish;

I.Yusupov lirikasida metaforalarning yasaliishi va badiiy xizmatini aniqlash;

shoir lirikasida troplarning obraz yaratishdagi xizmati va estetik vazifasini isbotlash.

Tadqiqotning obyektini sifatida shoir I.Yusupovning lirik asarlari jamlangan «Tanlanma asarlari»ning I, II, III tomlari (Nukus: Bilim, 2018) Har kimning o‘z davri bor (Nukus: Qoraqalpog‘iston, 2014) lirik to‘plamlari olingan.

Tadqiqotning predmetini poetik tilning nazariy asoslari, I.Yusupov lirikasining poetik tili, shaxsiy troplari va uning obraz yaratishdagi mahorati, shoir lirikasida metaforalarning yasatilish xususiyati, badiiy vazifasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

метафоранинг когнитив аспекти. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати – Тошкент, 2018.; Хасанов Б. Қазақ тіліндегі сөздердің метафоралы қолданылуы. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1964.; Сыбанбаева А. Қазақ тіліндегі концептуалдық метафораның қызметі. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1999.; Боранбаева Ж.Қ. Мағжан поэзиясының көркемдік жүйесі. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Астана, 2003.; Кәрибаева С. С.Муқанов поэзиясындағы авторлық метафоралар. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Астана, 2010.; Нуржекеева Л. Метонимияның лингвистикалық табиғаты. – Алматы: Қазақ университеті, 1992. Б.80.; Ибрагимов С. Сравнительные конструкции в татарском языке. Вопросы татарского языкознания. Казань. 1965 стр. 248-269.; Бабаев К. Түркмен дилиндәки меңзетмелер ҳаққида кәбир белгилер. Ученые знания ТГУ им А.М.Горького. Вып 49. Ашхабад 1967. 72-82-б.

⁴ Мақсетов К. Поэтика каракалпакского героического эпоса. – Ташкент: Наука, 1965; Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалары, Т. I, II. – Нөкіс: Билим, 2018.; Генжемуратов Б. Әжинияз лирикасының поэтикасы. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2017.; Нажимов П. Қарақалпақ тилинде теңеулердің структура-семантикалық өзгешеликтери. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 1994.; Камалов Қ. Көркем шығарманың тили ҳаққында // «Әмиўдәрәя» журналы, 1980. №10.; Юсупова Б. Стилистическое использование прилагательных в художественной произведении (на материалах произведений И.Юсупова). АКД. Нукус - 2001.; Алланазаров Е. Қарақалпақ тилинде метафоралардың стильлик қолланылыуы. Филол. илим. кандидаты Авторефераты Нөкіс:- 2002.

I.Yusupov lirikasining chuqur obrazlilik, leksik boyli, badiiy obraz yaratishdagi poetik tildan foydalanish mahorati va badiiy obrazlilikni ta'minlashda leksik elementlar alohida xizmat qilishining qoraqalpoq badiiy tili rivojining nazariy asoslari ochib berilgan;

I.Yusupovning shoirona, poetik tajribasi natijasida yuzaga kelgan yakka troplari (metafora, ramz, metonimiya, sinekdoxa va h.k) va ularning obraz yaratishdagi poetik xizmati, his-tuyg'ularini ixcham, aniq yetkazishda, estetik va emotsional-ekspressiv ta'sirchanlik ko'rsatishdagi badiiy obrazlilik vazifasi isbotlangan;

I.Yusupov lirikasida jonli predmetga xos bo'lgan voqea-hodisalarning jonsiz narsalarga ko'chishi, o'xshatilishi, ya'ni jonlantirish orqali yasalgan metaforalar, mavhum tushunchalarning zotlashishi orqali yasalgan metaforalar, diqqatni o'zgartirish orqali yasalgan metaforalarning obraz yaratishdagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga, tabiat hodisalariga va lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini berishdagi xizmati ochib berilgan;

I.Yusupov lirikasida troplarning (metonimiya, o'xshatish, epitet, qayta nomlash (perifrazalar)) qo'llanish xususiyatlari, estetik ta'sirchanligi, obraz yaratishdagi fikrni ixcham va obrazli ifodalash xizmati va badiiylikni ta'minlashdagi turli xulq-atvor tavsiflarini, xarakterini, qarashlarini, psixologik holatlarini, portretini badiiy-estetik ta'sir etishdagi vazifasi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

I.Yusupovning poetik tilning o'ziga xosligi, shoir lirikasining poetik tili orqali qoraqalpoq badiiy tilining taraqqiyoti tahlilga tortilgan;

I.Yusupov lirikasida yakka mualliflik metaforalar, metonimiyalar, sinekdoxalar va h.k. badiiy troplarning yaratilishi hamda qo'llanishi poetik tajriba natijasi ekanligi dalillangan;

I.Yusupov lirikasida jonlantirish orqali yasalgan metaforalar, zotlashish orqali yasalgan metaforalar va diqqatni o'zgartirish orqali yasalgan metaforalar obraz yaratishda, badiiylikni ta'minlashda, his-tuyg'uni obrazli yetkazishdagi xizmati misollar bilan isbotlangan.

I.Yusupov lirikasida troplarning obraz yaratishdagi xizmati, voqea-hodisaga nisbatan lirik qahramonning kechinmalarini bildirishdagi vazifasi ilmiy tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalariga mos kelishi, o'zaro bir-birini to'ldirib turishi qiyosiy-tarixiy, qiyosiy tipologik hamda badiiy-estetik tahlil usullarining qo'llanilishi, mavzuga doir tavsiyalar, badiiy-adabiy materiallarning ishonchli manbalar bilan asoslanganligi, tadqiqot natijalarining amaliyotda keng qo'llanilishi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qoraqalpoq adabiyotshunosligida poetik til, troplar umuman, poetika bilan bog'liq ilmiy konsepsiyalarni yanada kengaytirish hamda to'liqtirishda, shoir I.Yusupovning poetik mahorati, o'ziga xos individual ijodkorlik, poetik xususiyatlari, badiiy olami, shoir lirikasida ishlatilgan troplarning obraz yaratishdagi xizmati nazariy aspektida ochib berishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Taqiqot natijalarining amaliy ahamiyati I.Yusupov lirikasining poetik tili orqali qoraqalpoq badiiy tilining taraqqiyoti, yakka mualliflik troplar, troplarning badiiy vazifalari, metaforalarning obraz yaratishdagi ahamiyati to'g'risidagi xulosalar va ilmiy qarashlarning oliy o'quv o'rinlarida «Hozirgi adabiy jarayon», «Qoraqalpoq adabiyoti tarixi», «Adabiyotshunoslik asoslari», «Adabiyot nazariyasi» fanlaridan darslik, o'quv qo'llanma va metodik qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza matnlarini yangilashda, talabalarning bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiya ishlarini bajarishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. I.Yusupov lirikasida troplarning badiiy xizmatini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

lirik asarlarda poetik tilning nazariy asoslari, shoir I.Yusupov lirikasining poetik tili orqali qoraqalpoq badiiy adabiy tilining rivojlanishi bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining FA-F-1-005-sonli «Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini ilmiy o'rganish» (2017-2020 yy.) mavzusidagi fundamental loyihalarda foydalanilgan. (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 5-iyuldagi 261/1-son ma'lumotnomasi) Natijada, poetik tilning nazariy asoslari, qoraqalpoq adabiyotshunosligida o'rganilish tarixiga bog'liq ilmiy-nazariy qarashlar yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan va takomillashtirilgan;

I.Yusupov lirikasida yakka mualliflik troplar (metaforalar, metonimiyalar, sinekdoxalar va h.k) va ularning his-tuygularni, fikrlarni emotsional yetkazib berish, badiiylikni ta'minlash vazifasi bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyida I.Yusupovning adabiy meroslari bo'yicha tashkillashtirilgan ekspozitsiyalarning mazmunini boyitishda foydalanilgan. (2024-yil 9-iyuldagi 01-02/03-124-son ma'lumotnomasi). Natijada, I.Yusupov lirikasida yakka mualliflik troplarning ishlatilishi, badiiylikni ta'minlashdagi xizmati, his-tuyg'ularni yetkazib berishdagi ahamiyatini ochib berish imkoni yaratilgan;

Badiiy adabiyot, xalqning madaniy turmushi va ruhiy olamining rivojlanishida va I.Yusupovning ijodiyoti, poetik olami, shoir lirikasida metaforalarning bir necha turlari, ayniqsa, jonlantirish orqali yasalgan metaforalar, zotlashish orqali yasalgan metaforalar va diqqatni o'zgartirish orqali yasalgan metaforalar, ularning badiiy obrazlilikni ta'minlashdagi ahamiyati kabi xulosa va ilmiy tavsiyalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-2025-yillarga mo'ljallangan ish-rejasi bir qator bandlarining ijrosini ta'minlashda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanildi. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2024-yil 29-maydagi №7-03/1224-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy fazilatlarini takomillashtirish, yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi;

I.Yusupov lirikasida troplarning obraz yaratishdagi xizmati, hodisa yoki voqeaga nisbatan lirik qahramonning kechinmalarini bildirishdagi vazifasi bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi telaradiokompaniyasining «Qoraqalpog'iston» telekanalining «Assalomu-alaykum, Qoraqalpog'iston», «Gavhar so'zlar», «Adabiyot bo'stoni» va boshqa ko'rsatuvlarni tayyorlashda, «Qoraqalpog'iston» radiokanalining «Xayrli tong», «Adabiyot va davr»

eshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Telaradiokompaniyasining 2024-yil 26-iyundagi 05-22/292-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, I.Yusupov lirikasida troplarning obraz yaratishdagi va asarda badiiylikni ta’minlashdagi xizmati, poetik mahorati, asar g‘oyasining inson tarbiyasidagi ahamiyati va ta’lim-tarbiya jarayonida adabiyot tarixi materiallaridan foydalanishning yangi metodlari haqida keng tomoshabinlar auditoriyasiga ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 5 ta maqola respublika, 2 ta maqola chet el jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari belgilangan, O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**I.Yusupov lirikasi poetik tilining o‘ziga xosligi**» deb nomlangan birinchi bobning birinchi fasli «**Lirika poetik tilining nazariy asoslari**» masalasiga bag‘ishlangan.

Badiiy adabiyotda o‘z nafisligi, obrazlilik, badiiyligi bilan alohida baholanadigan asarlar – bular lirik asarlar hisoblanadi. Yupatgan, jahlini chiqargan, quvontirgan, xafa qilgan, ranjitgan, mehr bergan, qiynagan narsalarning hammasini, bir so‘z bilan aytqanda, subyektning ruhiy holati mazmuni bo‘lgan narsaning hammasi ham subyekt bo‘ylab, subyektda paydo bo‘lganning barchasini lirika deb qabul qilamiz⁵. Lirika – bu juda murakkab, tahlil qilinishi qiyin, insonlarni qattiq hayajonga soladigan, shuningdek, ularning eng nozik tuyg‘ulariga ta’sir qiladigan janr⁶.

Lirika – so‘z san’ati, badiiy mahoratning o‘ziga xos namunasi. Lirikada til va uning eng kichik birligi so‘z, so‘z birikmasi bilan bir qator his-tuyg‘u, xayolning kengligi ham badiiy obrazlilikni ta’minlaydi. Demak, lirikaning poetik tilining badiiy sifatini oshiradigan ham his-tuyg‘uning kengligi, o‘tkirliги va estetik ta’sirchanligi sanaladi.

⁵ Белинский В.Г. Шығармалары // қазақ тилине аударған Б.Шалабаев. – Алматы: Жазушы, 1987. Б.72.

⁶ Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалары. (Еки томлық) II том. – Нөкис: Билим, 2018. Б.53.

Poetik til – poetik, badiiylik va estetik vazifa bajaradigan til. Tilning badiiy-estetik, poetik xususiyatlariga qadimgi antik davr allomalari e'tibor berishgan⁷. Tilshunoslik, uning o'rganilishi XIX asrning oxirlarida estetik yo'nalish vakillari (B.Kroche, K.Fosslar, A.A.Potebnya va h.k.) nomi bilan bog'liq. Poetik til masalasi taniqli rus olimlari G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, L.V.Sherba, B.A.Larin ishlarida yangi yo'nalishda o'rganila boshlandi⁸.

Poetika – umuman, barcha san'atlarning badiiyligini tadqiq qiladigan qadimdan kelayotgan turi va u poeziyaning san'ati sifatida o'rganiladigan ilm.⁹ Poetikani badiiy adabiyotning o'rganish yo'nalishi bilan ilm sifatida qarash G'arbiy Yevropaning romantizm vakillari I.Gerder, F.Shilling, F.F.Shlegelder bilan bog'liq. Nazariy lingvistikada V.Gumbold, Shteyntal asarlarida namoyon bo'ldi. Poetik til masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda akademik V.V.Vinogradov «Rus stilistikasining muammolari» nomli mavzusida adabiy badiiy asar qurilishini o'rganishda lingvistik, estetik-stilistik, adabiyotshunoslik va badiiy san'atshunoslik aloqalar poetika doirasida birlashib ketishini ta'kidlaydi¹⁰.

Lirikaning badiiyligini uning poetik tili ko'rsatadi. Badiiylik lirik asar tilining tashqi shakli emas, mazmun va shaklning mosligi, xayol bilan til garmoniyasi, shoir g'oyasini bildiradigan so'zlarning kitobxon tuyg'usiga estetik ta'sir qilish ekspressivligi va emotsionalligidir. Poetik til faqatgina metafora, epitet, o'xshatish singari badiiy vositalarning soni yoki sifati bilan baholanmaydi. Shoir obraz yaratishda yoki lirik qahramonning kechinmalarini tasvirlashda xayoliga olgan estetik talablariga muvofiq voqeani badiiy til orqali estetik ta'sirchanlikda badiiy obrazli ravishda ko'rsata olishida baholanadi. Ta'sirchanlik va obrazlilik lirikada badiiy obrazni metafora, o'xshatishlar bilan ifodalamasdan, hech bir ekspressivlik bo'yog'i yo'q so'zlar bilan yoki so'z iboralari bilan ham berilishi mumkin.

Lirik asarlarda so'zlarda har xil ma'no anglatib, badiiy qo'llanish orqali shoirlar hayotiy voqealarni jonli, badiiy obrazli tarzda tasvirlay oladi. Shunday qilib, o'z asarlarini kitobxon tiliga mos, qalbiga yengil va tez qabul qilishini hamda o'qishini ta'minlaydi. Muallif obrazli badiiy so'zlarni qo'llanish orqaligina o'z uslubini shakllantiradi.

Umuman, poetik til haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, lirik asarning matndagi tasviriy vositalari: troplar va uning turlari; perifrazlarning qo'llanilishi, o'xshatishlar, metaforalar, obrazli epitetlar va h.k. poetik sinonimlarning ishlatilishini ko'rsatish, ularning badiiy xizmatini aniqlashdan iborat. Shuningdek, mazkur tasviriy vositalarning yasalish usullarini aniqlash lozim. Bu usullarga so'z ma'nosining ko'chishi (metaforalanishi) va h.k. poetik jarayonlar yotadi. Lirik asardagi so'zning ekspressiv-emotsionalligi va shu kabi badiiy poetik masalalar sanaladi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli «**I.Yusupov ijodining o'rganilishi**» deb nomlanadi. Ushbu faslda I.Yusupov ijodining tadqiq qilinishi haqida so'z yuritiladi.

⁷ Аристотель Об искусстве поэзии. – Москва: Госкомполитиздат. 1957. 183 с.

⁸ Винокур Г.О. Филологические исследования. Лингвистика и поэтика. – Москва: Наука, 1990. 455 с.; Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Наука, 1962. 256 с.; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Ленинград: Художественная литература, 1974. 285 с.

⁹ Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. С.376.

¹⁰ Виноградов В.В. Проблемы русской стилистика. – Москва: Высшая школа, 1981. – С.169.

I.Yusupov ijodi bo'yicha bir qator ilmiy ishlar dunyoga keldi.¹¹ Shoirning adabiy merosi, lirik asarlari olimlarning maxsus doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarining obyektiga aylangan. Jumladan, taniqli olim Q.Orazimbetov nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasida I.Yusupovning lirikasi, badiiy izlanishlari, badiiy qurilishi chuqur ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mana shu nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning asosiy xulosalari sifatida e'lon qilingan monografiyalarida qoraqalpoq poeziyasida bir qator shoirlar ijodida I.Yusupovning lirik asarlari tahlilga tortilgan¹². I.Yusupov ijodini maxsus o'rgangan olimlardan J.Maqqsetova, A.Xamidova, D.Paxratdinov, Q.Mambetov, Z.Ayimbetova, B.Yusupova, D.Yerjanova va boshqalarni tilga olish joiz.

1992-yili J.Maqqsetova «Ibrayim Yusupovning poetik mahorati» mavzusida nomzodlik dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1999-yil Azima Xamidova «Ibrayim Yusupovning ijodi va Yevropa adabiyoti» nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Mazkur dissertatsiyada Ibrayim Yusupovning ijodiga antik adabiyotning ta'siri, shoirning ijodidagi Yevropa adabiyotining janrlari va adabiy oqimlari, Ibrayim Yusupov ijodidagi romantik tendensiyalar tadqiq qilingan.¹³ I.Yusupov ijodida Sharq klassik shoirlarining an'analari o'rgangan olimlardan biri D.Paxratdinov hisoblanadi. U «I.Yusupov ijodida Sharq klassiklari an'analari» mavzusida 2001-yili nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.¹⁴ Dissertatsiyada hozirgi qoraqalpoq adabiyotida Sharq klassik adabiyotining badiiy an'analari I.Yusupov ijodi misolida o'rganilgan.

Q.Mambetovning «I.Yusupov poemalarining janr xususiyatlari» mavzusidagi dissertatsiya ishida I.Yusupov ijodida poema yaratish tamoyillari, epik, lirik, liro-epik va liro-dramatik poemalarining janr xususiyatlari keng tahlilga tortilgan.¹⁵

Tadqiqotchi Z.Ayimbetova «I.Yusupov poeziyasida folklorizm: evolyutsiya, o'zlashtirilish tiplari» mavzusida 2022-yili filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

¹¹ Axmetov S., Esenov J. Qaraqalpaqstan Respublikasynyń jazuyshylary. Neki, «Bilim», 1995; Mambetov K. Edebiyat teoriyası. Neki, «Bilim», 1995; Turdybaev Q. Bir shayyr dunyaga kelde de ketgi. // «Qaraqalpaqstan jasлары», 1999, 23-sentyabr; Bazarbaev J. Danalygy gızallyqqa ulasqan shayyr (edebiy – filosofiyalyk oylar). Neki, «Bilim», 2008; Kúshjanov M. Shayyr bahıty. // «Erkin Qaraqalpaqstan», 2005, 7-iyun; Esemuratov G. Peri mingen atqa qosyq ydlatqan shayyr. // «Erkin Qaraqalpaqstan», 2005, 10-aprel; Usy avtor. Poziya sarayynyń sardary. // «Erkin Qaraqalpaqstan», 2009, 21- aprel; Sulطانov Q. Jana deuyirdiń poziyası (I.Yusupovtyń «Beglińdi buzba sen» toplamy haqqynda) // «Qaraqalpaqstan jasлары», 1996, 16-fevral; Mambetnizov T. Ashshy bolsa da haqqykatlyk súretlenedi. // «Emiyderya», 1997, № 11-12; Esenov J. Poziya juldzy (I.Yusupov doretuyshiliginiń гейпара мәселелери). Neki, «Bilim», 2003; Orazymbetov K. Hazeri qaraqalpaq lirikasynnda kerkem formalardyń evolyutsiyasy hám tipologiyasy. Neki, «Bilim», 2004; Nurjanov P., Saymova G. I.Yusupovtyń «Mangı bulaq» poemasynyń janrlyk ógesheligi hám qaharman obrazı. // ÖZRIAQQB «Xabarshyсы», 2009, № 2; Turdybaev Q. I.Yusupovtyń «Mamelek ой» poemasy. // ÖZRIAQQB «Xabarshyсы»; 2009, № 1; Turdybaev Q. Ibrohim Yusupov ijodida folklor anyanalari («Poseydonning gazaбі» poemasi misolida) // «Úzbek tili va adabiyeti», 2009, № 1.

¹² Orazymbetov K. Hazeri qaraqalpaq lirikasynnda kerkem izleniyshilik (1980-jyllar lirikasy mysalynda) - Neki: Bilim, 1994.; Hazeri qaraqalpaq lirikasynnda kerkem formalardyń evolyutsiyasy hám tipologiyasy. Neki, «Bilim», 2004.

¹³ Xamidova A. Tvorchestvo Ibrayim Yusupova i Evropeyskaya literatura. Avtoref. diss. kand. fil. nauk. Nuqus, 1999. 15-s.

¹⁴ Paxratdinov D. Traditsii klassikov Vostoka v lirike I.Yusupova. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskikh nauk. – Nuqus-2001.

¹⁵ Mambetov K. I.Yusupov poemalarynyń janrlyk ógeshelikeri. Filologiya ilimlerini boyynsha filosofiya doktorı (PhD) ilimiy derejesin alyuy ushyn usynylgan dissertatsiya. Neki-2019.

(PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qildi.¹⁶ I.Yusupovning ijodi tilshunoslik nuqtai nazaridan ham o'rganila boshlandi. Jumladan, B.Yusupovning «Badiiy asarda sifatlarning uslubiy qo'llanilishi» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida I.Yusupov poeziyasida sifatning uslubiy qo'llanilishi lingvoslubiy aspektda o'rganilgan¹⁷. I.Yusupovning individual uslubi, lirik qahramonning ichki kechinmalarini tasvirlashdagi, portret, manzara, xarakter yaratishdagi va boshqa uslubiy maqsadlarda sifatlardan foydalanganligi keng tahlil qilinadi. Shuningdek, D.Yerjanova 2022-yil «Ibrayim Yusupov poemalarining lingvopoetik tahlili» mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qiladi¹⁸.

Birinchi bobning uchinchi fasli «**I.Yusupov lirikasining poetik tili orqali qoraqalpoq badiiy adabiy tilining taraqqiyoti**» deb nomlanadi. I.Yusupov qoraqalpoq poeziyasida poetik, chuqur obrazlilikka ega asarlari va alohida shoirlik madaniyati bilan ajralib turadigan adibdir. Shoir o'z asarlarida har bir so'zga alohida e'tibor berib, badiiy tilning leksikadan mohirlik bilan foydalanib, ularni saralab, zarur joylarda foydalana olgan. Shoir ijodida umumxalq so'zlashuv tilining tovush xususiyatlari, lug'at boyligi, badiiy obraz yaratishdagi badiiy tildan foydalanish mahorati, umuman, badiiy leksikasi so'z qo'llash mahorati asarlariga alohida estetik zavq berishi shubhasiz. Lirikada estetik zavq, chuqur obrazlilik va emotsional bo'yoqlarga ega, badiiy obrazlilikni ta'minlaydigan leksik elementlar alohida xizmat qiladi.

Lirik asar qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, u – tovushlar garmoniyasi, tovush uyg'unligi va tovush ritmining ifodasidir. Evfoniya, ya'ni tovush jihatidan o'xshashlik, tovush garmoniyasi she'r yozishning asosiy sharti ekanligini qozoq adabiyoti nazariyasini tadqiq qilgan olim Z.Qabdolov isbotlagan¹⁹. Poetik fonetika tovush takrorlari, tovush uyg'unligi turlari alliteratsiya, assonans, o'xshatish shuningdek, paronimiya masalalarini qamrab oladi.

Lirikaning poetik tilida tovushlar uyg'unligi, garmoniyasi faqatgina she'rga xos bo'lgan tovush ritmining namunasi bo'libgina qolmasdan, badiiy obrazlilikni ham ta'minlashi barcha shoirlar ijodida uchraydi.

Umuman, shoir lirikasida badiiy leksikaning bir necha turlaridan misol keltirish mumkin. Shoir xalq tilining takomillashgan shakllari, badiiy leksika namunalaridan mohirlik bilan foydalangan va poetik lug'at boyligi, badiiy go'zalligi, chuqur obrazliliigi bilan ajralib turadi.

Birinchi bobning to'rtinchi fasli «**I.Yusupov lirikasining «shaxsiy troplari»**» deb nomlanadi. I.Yusupov lirikasi troplarga juda boy bo'lib, uning ildizlari qoraqalpoq xalqining o'g'zaki adabiyotidan boshlanadi. Shu jumladan, shoirning

¹⁶ Айымбетова З. И. Юсупов поэзиясында фольклоризм: эволюция, өзлестириу типлери. Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) илимий дәрежесин алыу ушын усынылған диссертация. Нөкис-2022.

¹⁷ Юсупова Б. Көркем шығармада келбетликлердің стильлик қолланылыуы (И. Юсупов шығармалары мысалында) Филология илимлериниң кандидаты илимий дәрежесин алыу ушын усынылған диссертация. – Нөкис-2000.

¹⁸ Ержанова Д. Ибрайым Юсупов поэмаларының лингвопоэтикалық анализи. Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD) илимий дәрежесин алыу ушын усынылған диссертация. Нөкис-2022.

¹⁹ Қабдоллов З. Әдебиат теориясының негиздери. – Алматы: Ғылым, 1970. Б.263-265.

ijodida an'anaviy troplar bilan birga uning ijod olamida paydo bo'lgan, ishlab chiqilgan shaxsiy troplari ham uchraydi. Shoir ularni qo'llash orqali badiiy tilning alvon sirlarini ochadi. Badiiy adabiyotda troplarning nazariy asoslari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, G.Abramovich, B.Tomashevskiy, V.Polyakov, I.Sultan, T.Babaev, H.Umarov, Z.Qobdolov, S.Axmetov, Q.Jarimbetov, Q.Orazimbetov, B.Genjemuratov va boshqa olimlarning adabiyot nazariyasi bilan bog'liq ishlarida troplarning nazariy ta'riflari berilgan²⁰.

Yakka mualliflik metaforalarni shoirlar ma'lum bir holat bilan bog'liq o'ylab topadi. Taniqli Rossiyalik olim I.B.Golub yakka mualliflik metaforalar to'g'risida: «individual-mualliflik metaforalar obrazli, o'ylab topish imkoniyatlari cheksiz²¹» deb baholaydi. Tilshunos olim I.V.Arnold mualliflik metaforalar haqida fikr bildirar ekan, shunday deydi: «Individual-mualliflik metaforaning tarkibiga poetik metafora kiradi, uning asosini to'rt komponent tashkil qiladi: analogiya, ikki tomonlama ko'rib chiqish, sezgir obraz, inson his qiladigan tuyg'ularga ega qilib qo'yish. Keltirilgan to'rt komponentning barchasi har xil hajmda qo'llaniladi. Analogiyani so'zma-so'z tushunishning zarurati yo'q, chunki, poetik metafora, shuningdek, ikki narsa orasidagi tafovutni ham anglatadi»²² - deb ta'kidlaydi.

I.Yusupov lirikasini o'rganish davomida unda faqat shoir poeziyasigagina xos bo'lgan yakka mualliflik metaforalarning alohida o'rin egallashini anglaymiz. Yakka mualliflik metaforalar fikrni badiiylashtirish, emotsional ta'sirchanlikni orttitish bilan birga o'quvchining alohida e'tiborini o'ziga tortadi. Yakka mualliflik metaforalar shoirning ijodiy shaxsiy uslubiga xos xususiyatlarini, uning ijodiy mahoratini taraqqiyot ko'rsatkichlarini ham anglatadi. Masalan: «*Qizil aydarhanin*» túsip dástine, Miy shayilip, júrek suwlağanshelli (III tom. 64-bet), Dúnya bas shayqasar bizlerge qarap, Netken *hújdansızlıq anemiyası!* (III tom. 66-bet).

Bunda shoir «*qizil aydarha*» va «*hújdansızlıq anemiyası*» metaforalarini ishlatgan. Qizil imperiya davrining qat'iy tartibi, xalqimizning o'z erkidan ayrilishi, milliyligini yo'qotish xavfi, kommunistik g'oyaning xalq ongiga salbiy ta'siri, qonunbuzarlik, yakka hokimlik, tartibsizlik jarayonlari mana shu metafora orqali o'zining obrazli ifodasini topgan.

Ikkinchi bob «**I.Yusupov lirikasida metaforalar**» deb nomlanadi. Mazkur bobning birinchi fasli «**Jonlantirish orqali yasalgan metaforalar**» deb nomlanib, unda metaforaning nazariy asoslanishi, adabiyotshunoslikda olimlarning metaforani

²⁰Абрамович Г.Л. Введение в литературоведение. – Москва: Прсвещение, 1979.; Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. Москва, 2011 ж. 301-б.; Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б.126-140; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.324; Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. – Б.157-164; Худойбердиев Е. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2007. – Б.106-118; Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. – Б.126-134; Матқурбанов У.Ю. Язык и жанр произведения. – Нөкис: Билим, 1996. – Б.8-54; Ахметов С. Эдебияттаныў терминлериниң қысқаша сөзлиги. Н. 1973. 147-б.; Жәримбетов Қ. Эдебияттаныўдан сабақлар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2012. – Б.52-70.; Оразымбетов Қ. Таңдамалы шығармалары. (Еки томлық) I том. – Нөкис: Билим, 2018.; Таңдамалы шығармалары. (Еки томлық) II том. – Нөкис: Билим, 2018.; Жаримбетов Қ., Генжемуратов Б. Эдебият теориясы. – Ташкент: 2018. Б.148.; Жаримбетов Қ., Генжемуратов Б. Эдебият теориясы. – Ташкент: 2018. Б.148.; Қабдоллов З. Екі томдық таңдамалы шығармалар: Екинши том. Сөз өнері: Монография. Талант пен таным: Эдеби толғаныстар. – Алма ата: Жазыўшы, 1983.

²¹ Голуб И.Б. Стилистика русского языка: Учебное пособие. – Москва: Айрис пресс. 1997. С.135.

²² Москвин В.П. Русская метафора: очерк семиотической теории. – Москва: Ленанд. 2006. С.125.

tasnif qilishi, I.Yusupov lirikasidagi metaforalar guruhlarga ajratilib, jonlantirish orqali yasalgan metaforalar tahlilga tortildi.

Metafora – dunyo tillaridagi shoirlar ijodida ko‘proq qo‘llaniladigan trop. Aristotel, Platon, Teofrast, Sitseron, Kvintelyan singari donishmandlarning falsafiy ishlarida metaforani faqat poetik nutqning badiiy vositasi sifatida baholagan. Sharl Balli til metaforasi va poetik metaforalarni qiyoslar ekan, «...obrazlar tabiatida, obrazli nutqda bir qator o‘ziga xosliklarni sezish mumkin. Ma’lum bir ijtimoiy muhit haqida fikr shakllangan til manbalari, har xil tillardagi ekspressiv omillarning ramziy va ijtimoiy ta’rifi ko‘pgina ma’lumotlarda uchraydi²³». Metafora – poeziyaning asosi, poeziya obrazlardan tarkib topgan, metafora esa mana shu obraz yaratishning eng asosiy usuli hisoblanadi. Ispan faylasufi Xose Ortega-i Gasset «Две главные метафоры» nomli tadqiqot ishida: «... metafora – ongning qimmatbaho quroli, ilmiy tafakkur shakli. ...poeziya metaforalarni o‘ylab topsa, ilm ularni qo‘llaydi, - deb ta’kidlaydi.²⁴

I.Yusupov lirikasida badiiy metaforalarning bir necha turlarini uchratish mumkin. Metaforalarni turlarga ajratishda, tasniflash (klassifikatsiya) masalalari bo‘yicha jahon olimlarini qiziqtirib kelmoqda. Shunday bo‘lsa ham, shu kungacha badiiy metaforalarni tasnif qilishda, turlarga ajratishda bir to‘xtamga kelinmagan. Metaforalarni turlarga ajratishda har bir olimning, har bir tadqiqot maktabi vakillarining konsepsiyasi, yo‘nalishi bor. Metaforalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan har xil yo‘nalishda turlarga ajratib kelinmoqda. Masalan, rus tilshunosligida O.S.Axmanova metaforalarni 5 turga, giperbolali metafora, leksik metafora, natijali metafora, natijasiz metafora va shoirlik metafora shaklida ajratadi²⁵. Taniqli olim B.N.Tomashevskiy²⁶ metaforalarni ikki guruhga uslubiy va til metaforalari, A.V.Belskiy²⁷ metaforalarni shoirlik va ritorik, Yu.S.Yazikova²⁸ esa, til hamda shaxsiy uslubiy metaforalar kabi ikki turga ajratadi.

Qozoq tilshunosligida B.Xasanov²⁹ metaforalarni ikkiga ajratadi. Olimning keltirishicha, ma’lum bir so‘z zargarining so‘z qo‘llashidan paydo bo‘lgan metafora (individual metafora) ikkinchisi, umumxalq an’anaviy metafora deb o‘rganadi. Bunday yondashuvni qozoq olimlaridan K.Axanov, A.Ayg‘ubiluli, Z.Qabdolov va boshqalar ham ma’qullaydi.

Mazkur olimlarning badiiy metaforalarni tasniflash, turlarga ajratish bosqichlarini o‘rganib chiqib, I.Yusupov lirikasidagi badiiy metaforalarni o‘rganishni maqsad qildik.

Jonlantirish orqali yasalgan metaforalar predmetga, jonsiz narsaga, tirik jongagina ega bo‘la oladigan xususiyatlarning, o‘xshash belgilarining ko‘chishi orqali

²³ Шарл Балли Французская стилистика. – Москва: Государственное издательство иностранной литературы, 1961. – с 394. // https://www.studmed.ru/balli-sh-francuzskaya-stilistika_e679271df65.html

²⁴ Ортега Х и Гооосет. Две великие метафоры // Теория метафоры. Сборник, – Москва: Прогресс, 1990. -с 68-81. // <https://www.rulit.me/author/ortega-i-gasset-hose/teoriya-metafory-sbornik-statej-download-292590.html>

²⁵ Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – Москва: Учпедгиз, 1957. – с.295.

²⁶ Томашевский Б.В. Стилистика: Учеб. пособие. - 2-е изд., испр. и доп. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1983. - 288 с.

²⁷ Бельский А.А. Зарубежная драматургия: Сб. ст. / А.А. Бельский. — Пермь: Пермский гос. ун-т им. А.М.Горького, 1989. — С. 5–27.

²⁸ Язикова Ю.С. Анализ метафор стиля повести М. Горького «В людях» // Учен. зап. Дальневост. ун-та. Вып. 5. - 127 с.

²⁹ Аханов К. Тіл білімінің негіздері. - Алматы: Мектеп, 2002. - 158-б.

yasaladigan metaforalarning bir turiga aytiladi. O‘zbek adabiyotshunos olimi T. Boboyev: «Jonlantirish – tasvirlash obyektini bo‘rttirib, aniq va ravshan tasvirlashga imkon beradi³⁰» - deb yozadi. Shoir I. Yusupov lirikasida mana shu yo‘nalishdagi metaforalarning juda ko‘p ekanligini angladik. Masalan: Te‘nsiz awir ómiri ana Watanniń, *Jasliq jigerińdi lawlattı sonday*. Sol kúnde aspanda qanlı bult kóship, Daraqlar japırılıp, *úrgende boran...* Bir gezleri Berdaq júrgen jerlerde, Gúwlep bir *jabayı samallar* eser. (II tom. 3-bet). Watan shaqırırın túsirip eske, *Ashıwlı kók teńizdiń* shawqım hawazı. (II tom. 17-bet). Bu shoirning «Erkinlik jırshısı» she‘ridan keltirilgan qatorlar edi. Ushbu qatorlarda ko‘zga tashlanadigan «*jasliq jigerińdi lawlattı sonday*», «*úrgende boran*», «*ashıwlı kók teńizdiń*» kabi jonlantirish orqali yasalgan metaforalarni kuzatamiz. Albatta, o‘t, o‘tin, yoqilg‘i predmet lovullab yonishi mumkin, uni biz tabiiy holatda ko‘zimiz bilan ko‘ramiz. Mana shu tabiiy jarayonni mavhum holatdagi yoshlikning, kuch-g‘ayratning to‘lishi, yoshlikning olovli holatiga ko‘chishi, unga jon berilishi jonlantirish metaforasi sifatida baholash mumkin. Shuningdek, «boranniń úriwi» (úrgende boran) «teńizdiń ashıwlanıwı» (ashıwlı kók teńiz) jonli predmetda kuzatiladigan jarayonning tabiiy jonsiz holatdagi hodisaga ko‘chishini jonlantirish metaforasi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Albatta, dengizning g‘azablanmasligini, bo‘ronning urmasligini biz yaxshi bilamiz. Shoir, dengizga, bo‘ronga jon berishni, tabiiy hodisani obrazli ravishda yaratishga harakat qilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli «**Zotlashish orqali yasalgan metaforalar**» deb nomlangan bo‘lib, I. Yusupov lirikasida qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda zotlashish orqali yasalgan metaforalar va ularning badiiylikni ta‘minlash vazifasi o‘rganiladi.

Metafora badiiy asarga alohida rang beradi. Uning yordami bilan badiiy adabiyotda har xil obrazlar yaratiladi. Emotsional va ekspressiv ta‘sir orqali kitobxon yoki tinglovchining e‘tiborini tortadi. Metafora narsa yoki turli hodisa o‘rtasidagi «konseptual o‘xshashlik» asosida paydo bo‘ladi. U olamni, dunyoni qanday qabul qilib, uni qanday tushunganimiz timsoli. Inson turli his-tuyg‘ularni boshidan kechiradi, to‘g‘ri ma‘nodagi va oddiy so‘zlar bilan ichki kechinmalarni, g‘am-alam, sog‘inch va nolish tuyg‘ularini yetkazib berish mumkin emas. Kinoyali, ko‘chma ma‘noda, obrazli, ko‘ngilga yaqin metafora ko‘p so‘zlarni almashtiradi. Shu boisdan ham, shoir-yozuvchilar metaforizatsiya usulini ijodiy faoliyatida ko‘proq qo‘llanadi. Demak, poeziyada so‘zning estetik ta‘sirini ta‘minlaydigan asosiy amal metaforizatsiya ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Poeziyada metaforaning o‘rni haqida juda ko‘p fikrlar bildirilgan. Akademik V.M. Jirmunskiy: «...adabiy yo‘nalish – romantizmning asosiy xususiyatlari metaforizatsiya usulida», «...metafora voqeani romantik qayta yaratish usuli³¹» - deb biladi. Ko‘p hollarda metafora shoir shaxsiy uslubining asosiy belgisi sifatida baholanadi. Shu bois bo‘lsa kerak, V.M. Jirmunskiy A. Blokti, R. Yakobson esa V. Mayakovskiyning «metafora shoiri» deb ataydi. Qozoq olimi Z. Qobdolov metafora to‘g‘risida «adabiy tildagi eng asosiy jarayonlardan biri ko‘chirish yoki metafora so‘zning ma‘nosini o‘zgartirib aytish, tasvirlanayotgan

³⁰ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент: Ўзбекистон, 2002. Б.334.

³¹ Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. Курс лекций. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. с.335.

narsani yoki hodisani oydinlashtirib, yanada sayqallashtirib ko'rsatish uchun ularni o'zlariga o'xshash boshqa narsaga taqqoslash» deb jozadi³². Masalan; Endi ja'na jolga burayiq desek, *Gónergen mashina* burilmay atir, Bir jaqta *oyangan oylar qozgalip*, Ja'nasha jasawdi talap etpekte. (II t.271-b)

Asarda lirik qahramonning ichki tug'yonlari, alg'ov-dalg'ov zamonga qarashlari, alg'ov-dalg'ov xayollari, bashoratlari aks etgan. Yuqorida keltirilgan ikkinchi qatorda «*gónergen mashina*» metaforasi qo'llanilgan. Bu o'z navbatida zotlashish orqali yasalgan metafora. Eskirgan mashina – bu davlat, oldingi kengash uyushmasi. Mana, shu kengash uyushmasini narsa, predmet sifatida zotlashtirib, qo'llanishi, davlatning, mana shu jamiyat, mafkuraning eskirganligi, qulash xavfi mavjudligini shoir, eskirgan mashinaga o'xshatishi ham badiiy izlanishlari natijasi hisoblanadi. Keyingi ikkinchi xulosaning birinchi qatorida «*oyangan oylar qozgalip*» metaforasi ham ishlatilgan. Ushbu metaforada xalqning milliy istiqlol, erkinlik hislari, talpinishlari, intilishlari ko'zga tashlanadi. Masalan: *Dóhmet degishleri, g'iybat selleri*, Juwip ketalmadi izleriñizdi. (II t.329-b) Bu asarning birinchi qatorida *dóhmet degishleri, g'iybat selleri* zotlashuvi orqali yasalgan metaforalar ishlatilgan. Tosh, sel so'zlari narsa predmetlarga nisbatan qo'llaniladigan so'zlar. Masalan, daryoning to'foni (toshib, suv bosishi), sel – yomg'irning jalaga aylanishi, quyib yog'ishi, suv toshqini kabi ma'noga ega. Shoir mana shu tuhmat, jalaning daryoning toshishiga o'xshatishi orqali – tuhmat toshlari, g'iybat sellari zotlashish metaforasini ishlatgan.

I.Yusupov lirikasiga xos bo'lgan metaforalar uning badiiy so'zdan foydalanishida, zarur so'zni topib ishlata olishidagi ijodiy munosabatini, shoirlik mahoratini anglatadi. Shoir o'z asarlarida ijtimoiy-siyosiy voqealarga, tabiat hodisalariga munosabatlarini bildirishda, lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini ifodalashda metaforalardan mohirlik bilan foydalanadi. Shoir hayot haqiqati asosidagi hayot falsafasini tasvirlashda metaforalardan unumli foydalanganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shunday qilib, shoir lirikasida zotlashish orqali yasalgan metaforalarning qo'llanish xususiyati bo'yicha o'z fikrlarimizni bildirish bilan birga metaforik tasvirlash usuli badiiylikka erishish shartlarining biri deb hisoblaymiz.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli «**Diqqatni o'zgartirish orqali yasalgan metaforalar**» deb nomlanadi. Metafora narsalarni bir-biriga o'xshatishga asoslangan ko'chma ma'noda ifodalashning bir turidir. «Metafora ikki predmet yoki hodisa orasidagi o'xshashlikka asoslanadi, o'xshatilayotgan predmetga unga o'xshash predmetning xususiyatlari, sifatli belgilari ko'chiriladi»³³. Diqqatni o'zgartirish orqali yasalgan metaforalarning qo'llanishi ham shoir lirikasida juda ko'p uchraydi. Masalan: Jap boyin qaplap súyrik, shıgar terektiñ palı, Kól ústinde baslanıp *quslardıñ festivali*.(I t.44-b)

She'r satrlarida «*quslar festivali*» metaforasi qo'llanilgan. Bu diqqatni o'zgartirish metaforasi hisoblanadi. Shoir kitobxon e'tiborini o'zgartirish, his-tuyg'ularini oshirish uchun mana shu metaforani o'rinli ishlatgan. To'g'ri ma'noda qabul qiladigan bo'lsak, qushlarning festivali bo'lmasligini yaxshi bilamiz. Festival –

³² Қобдолов З. Сөз өнери. – Алматы: Мектеп, 1982. Б.368.

³³ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. Б.329.

bu insoniyat olami badiiy san'atning o'yin-kulguli teatrlashtirilgan shou-konserti. Mana shu festivalning jo'shqin, tantanali ko'rinishining ko'l bo'yidagi qushlar holatiga ko'chishi, o'xshatilishi, diqqat-e'tibor shunga yo'naltirilganligi yorqin namoyon bo'ladi. Masalan: Ja'na turmıs, *mádeniyat ađısın* kórdim, Qızıl borbor Frunzeñniń kóshelerinde. (I t.77-b)

Mazkur she'r qatorlarida *mádeniyat ađısı* metaforasi qo'llanilgan. Albatta, to'g'ri ma'noda daryoning, ariqning, umuman, suvning oqimini tushunamiz. Suvning oqimi – to'g'ri ma'nodagi so'z birikmasi, bunda hech qanday obrazlilik yo'q. Shoir bu she'r satrlarida qirg'izlarning Frunze shahridagi madaniyat maskanlarining (madaniyat uylarining) rivojlanishini aks ettirishda «Yangi hayot, madaniyat rivojini ko'rdim» desa obrazlilik, estetik ta'sirchanligi quruq bayondangina iborat bo'lar edi. O'quvchi e'tiborini tortish, ko'ngil qulfiga qo'l solish, obrazlilik bilan ta'sir qilish uchun *madaniyat oqimi* metaforasini o'rinli ishlatgan. Masalan: Siz jóninde *qamislardıń ósegin...* Pay-pay, otađası-ay, gúwlep ótpeysiz? Nege siz solardı japırıp kútpeysiz?! Buni esitip *Erkin góddaslap* ketti, Tasıp, dógeregín kól-dárya etti. (I t.89-b)

She'rni diqqat bilan o'qib chiqsak, troplarning juda ko'p va o'rinli ishlatilganining guvohi bo'lamiz. Asarda «Qıysıq torańgıllar keñesti ásten», (qıysıq torańgıllardıń keñesiwi) qaysar to'lqınlar, qamishlarning g'iybati va h.k. metaforalarni uchratishimiz mumkin. Albatta, qamishlar g'iybat qilmaydi, kun bo'yi shamol bilan to'xtamaydigan qamishning hushtagi. Insoniyat olamida ba'zi odamlar g'iybatining qamishlarga ko'chishi, diqqatni o'zgartirishi ko'zga tashlanadi. Keyingi qatorlardagi «Erkin góddaslap ketti» metaforasi ham Erkindaryoning toshib ketishi, suv toshqini, bir zumda atrofıdagi qishloq-hududni qamrab olishi, ayrim shaxslarning xarakteridagi g'o'ddayib, kekkayib ketish holatiga o'xshatilishi diqqatni o'zgartirish metaforasi sifatida baholash mumkin.

Diqqatni o'zgartirish metaforalari fikrni badiiylashtirish, emotsional ta'sirchanlikni oshirish bilan birga o'quvchining alohida e'tiborini tortadi. Metaforalar shoirning ijodiy uslubiga xos xususiyatlarini, uning ijodiy mahoratining rivojlanish ko'rsatkichlarini ham anglatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**I.Yusupov lirikasida troplarning obraz yaratishdagi xizmati**» deb nomlanadi. Ushbu bobning «**Metonimiyalar**» nomli faslida I.Yusupov lirikasida metonimiyalarning voqea-hodisalarni, ularning ba'zi tomonlarini oydinlashtirish, alohida, ixcham va obrazli tasvirlash, asarning emotsional ta'sirchanligini ta'minlashi haqida so'z yuritiladi. Rus olimi F.M.Selivanov «Poetika bilim» nomli ishida metonimiya va sinekdoxa haqida fikr bildirar ekan: - «... ular narsa va jarayonning, belgi yoki harakatlarining ichki yoki tashqi o'xshashliklarining aloqalarining birining ikkinchisiga o'tishi, aralashishi natijasida paydo bo'ladi. Sinekdoxada bu aralashish son aloqasi va munosabati yo'nalishida bo'lsa, metonimiyada son munosabati va bog'liqligi asosida amalga oshadi³⁴» - deb yozadi.

Metonimiyani til hodisasi sifatida qozoq tilida birinchilardan bo'lib maxsus o'rgangan olim L.Nurjekeeva fanda metonimiyani sinekdoxadan bo'lib, ikkisini

³⁴ Селиванов Ф. М. Поэтика былин. – Москва: МГУ, 1977. Б.57.

tropning ikkita boshqa turi deb qaraydiganlar ham bor ekanligi haqida to'xtalib, o'zining oxirgi fikrga qo'shilishini aytadi, bu fikrini har tomonlama isbotlab yangi ilmiy fikr taklif qiladi. U metonimiya bilan sinekdoxaning asosiy tabiati bir-biriga o'xshashligini aytib, sinekdoxa metonimiyaning bir turi deb ta'kidlaydi.³⁵

Lirik asarlarda poetik metonimiya badiiy obrazlilikni, emotsional-ekspressivlikni ta'minlaydigan poetik jarayonlardan biri hisoblanadi. Mana shunday poetik metonimiyalar I.Yusupov lirikasida ko'p uchraydi. Uning «Ovul, ovul» lirik she'rida ishlatilgan poetik metonimiyaga e'tibor beraylik. Masalan; Kórpeni iyzep jatıp, Awqattı kúteseñ sonsha, *Ash júrekke aqtan tatıp*, Basıń mıńğırday bolğansha. (II –tom. 85-bet)

Ushbu qatorlarda «ash júrekke, aqtan tatıp» metonimiyasi ishlatilgan. Agar shoir bu metonimiyalarni ishlatmay och qoringa, aroqdan ichib deyilsa, she'rning badiiy qimmatini yo'qolar edi. Shoir bunday ta'sirsiz, hissiy bo'yoqqa ega bo'la olmaydigan quruq, yalang'och so'zlardan chetlab o'tib, «och yurakka, oqdan totib» poetik metonimiyasini ishlatgan. Bu metonimiyalar she'r satrlarida jilvalanib, badiiy obrazlilikka ega bo'lgan. Masalan: Bul «*kók qağaz*» shitirlasa qay jerde, Jurt qulağı erbeñ etip alańlar. (III –tom. 86-bet)

Shoirning «Dollar» she'ridan olingan bu qatorlarda metonimiya orqali fikrning obrazlilikni yanada kuchaytirilgan. «Ko'k qog'oz»ning shitirlashi bilan yurt qulog'ining ding bo'lib qolishi dollarning ijtimoiy va iqtisodiy turmushimizda muhim ahamiyatga ega ekanligi, kishilar orasidagi muomala munosabat me'yorlarining ham dollar narxi bilan o'lchanayotganligi haqida mazmun badiiy aks ettirilgan. «Ko'k qog'oz» metonimiyasi ham poeziya tilida yangi, ammo xalq o'g'zaki nutqiga xos hisoblanadi. Metonimiya badiiy so'z ustasiga ixcham, obrazli va ta'sirchan tasvirlash imkonini beradi.

Mazkur bobning ikkinchi fasli «**O'xshatishlar**» deb nomlanadi.

Folklorshunos olimlar o'xshatishlarning qadimgi davr folklorida paydo bo'lish manbalarini, rivojlanishi bilan she'rda bajaradigan vazifasini, qahramonlik eposlardagi o'rni haqida V.Ya.Propp, F.M.Selivanov, I.N.Kravsov, L.A.Astafeva singari olimlar o'z fikrlarini ilmiy ishlarida yozib qoldirgan³⁶. Demak, o'xshatish - qadim zamonlardan buyon xalqlarning og'zaki va yozma adabiyotlarida ishlatilib kelayotgan badiiy tasviriy vositalar hisoblanadi.

I.Yusupov lirikasida o'xshatishlarning semanik, uslubiy va badiiy obrazlilik belgilariga qarab 7 guruhga: *metaforik o'xshatish, epitetlik o'xshatish, metonimik o'xshatish, gradatsiyalik o'xshatish, sinekdoxalik o'xshatish, giperbolalik o'xshatish, litotalik o'xshatish* deb o'rganishni nazarda tutdik.

Metaforik o'xshatishlarda predmetning ko'chma ma'noda qo'llanilishi natijasida umumiy o'xshashlik ma'no o'tkirlashib, o'xshashlik badiiy obraz oydinlashib, badiiylik sifati namoyon bo'lib turadi. Lirik asarlarda shoirning assotsiativli o'ylash doirasi bilan bog'liq qo'llanadigan metaforik o'xshatishlar har xil xususiyatga ega

³⁵ Нуржекеева Л. Метонимияның лингвистикалық табиғаты. – Алматы: Қазақ университети, 1992. Б.80.

³⁶ Пропп В.Я. Русский героический эпос. – М., 1958. С.522-523.; Селиванов Ф.М. Сравнение в былинах // Фольклор как искусство слово. – М., 1975.; Кравцов И.Н. Сравнение в народных бытовых лирических песнях // Фольклор как искусство слово. – М., 1975.; Астафьева Л.А. Сравнение в частушках // Фольклор как искусство слово. – М., 1975. С.142.

bo'radi. Shoir I.Yusupov lirikasida quyidagi shakldagi metaforik o'xshatishlarni uchratamiz. Masalan, shoirning «Paxtakor bobo» she'rida: Hár túp paxta usınar oǵan gúl, *Erke qızlarınday babanıń* - degan she'riy satrlarida har bir tup paxtaning (g'oz) paxtakor boboga o'zining erka qizlaridek gul taklif qilishi ya'ni paxtaning o'xshatilishi ham shu harakatning ko'chishi metaforik o'xshatish hisoblanadi. O'xshatishlar ikki xil ma'noda ishlatilishi ma'lum: birinchisi to'g'ri ma'noda, ikkinchisi ko'chma ma'noda. Yuqoridagi misolda paxtaning erka qizlaridek gul uzatishi metaforik o'xshatish hisoblanadi. Shuningdek, shoirning mana shu she'rida: *Aqlıǵınday bildirlap, oynap*, Suw da onıń izine ergen, (15-bet) degan qatorda metaforik o'xshatish qo'llanilgan. Nevaraning, bolaning harakati, bidirlab, o'ynashi suvning oqimiga ko'chma, metaforik usulda va o'xshatish vazifasida ishlatilgan. Tolqın shabar *úrikken ánday* dúrkirep, Onıń sırın aytqızǵanday kúsh kimde? (28-bet). Bu misolda daryoning to'lqini, suvning toshishidagi harakat, xususiyati, cho'chigan qushga o'xshatilishi, qush harakatining to'lqinga ko'chishi hamda shu harsakatga o'xshatilishi metaforik o'xshatish hisoblanadi.

Xullas, metaforik o'xshatishlarda metaforizatsiyalik, ko'chma ma'no bilan o'xshatishlik xususiyat qorishib ketgan. Shoir ijodida bunday metaforik o'xshatishlarni ko'plab keltirish mumkin. Bunday metaforik o'xshatishlar lirikada badiiy obrazlilikni ta'minlashda alohida poetik hodisa sanaladi.

Mazkur bobning uchinchi fasli «**Epitetlar**» deb nomlanadi.

«Epitet keng ma'noda predmet belgilaridan birini kuchaytirib va shu orqali o'quvchi yoki tinglovchi e'tiborini o'ziga tortish hamda badiiy obrazlilikni oshirish maqsadida qo'llaniladigan poetik usul hisoblanadi»³⁷. «U obyektning qandaydir tomonini aniqlovchi oddiy belgi emas, balki muallifning dunyoni individual his qilishi orqali uning ruhiy-emotsional, badiiy fikrlash doirasidan o'tkazilgan murakkab prottovush vazifasini bajaradi»³⁸. Boshqacha aytganda, «...predmetning xususiyatini badiiy obrazli tasvirlash uchun ishlatilgan so'z, tropning bir turiga epitet deyiladi»³⁹. Demak, epitetlar narsaga, voqea-hodisaga tegishli bo'lgan qandaydir belgini, sifatni, xususiyatni, badiiy o'ziga xoslikni obrazli baholab ko'rsatish maqsadida ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'zlar. Epitet - badiiy aniqlash, u oddiy, sodda aniqlashdan o'zining obrazli, ekspressiv ma'nosi bilan ajralib turadi. Oddiy aniqlashlarda ekspressivlik bo'lmaydi, epitetlarda obrazlilik, tasvirlash, emotsional-ekspressivlik ma'nosi jamlangan bo'lib, ular ma'lum bir badiiy uslubiy maqsadda tanlab qo'llaniladi. Ko'pgina adabiyotlarda u poetik aniqlash deb ham yuritiladi.

Rus filologiyasida epitetlarni o'rganishda birinchilardan bo'lib diaxronik yondashuv qo'llangan A.N.Veselovskiy haqli ravishda epitet nazariyasining asosini solgan olim sanaladi. Olimning fikricha, bizga tanish bo'lgan epitetlar ortida uzoq tarixiy-psixologik tushunchalar, foydali va zarur g'oyalardan go'zallik tushunchasini aniqlashgacha bo'lgan evolutsiyadagi estetik metodlarning tarixi yotadi.⁴⁰

³⁷ Варонова А.Г. Эпитеты и определение в языке Камознса: Автореф. дисс.канд. филол.наук. – Москва, 1999.

³⁸ Губанов С.А. Эпитет в творчестве М.И.Цветаевой: семантический и структурный аспекты: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Самара, 2009.

³⁹ Серебренникова Н.Г. Механизм эпитета: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Тамбов, 2002.

⁴⁰ Веселовский А.Н. Из истории эпитета // Историческая поэтика.- Москва: Высшая школа, 1989. // http://az.lib.ru/w/weselowskij_a_n/text_0050.shtml

Keyinchalik atoqli filolog olim V.M.Jirmunskiy «epitet» atamasini tor va keng ma'noda qo'llanilishini ajratadi.⁴¹

Shoir lirikasida yakka mualliflik epitetlar shoirdan albatta, iste'dodni, poetik mahoratni talab etadi. Masalan: Bağ ishinde jatqan sol *zañsız soqpaq*, Bası eken *zañlı turmısımızdıñ*. (II tom. 23-bet), *Saqıy quyash* ozal basında, Nuri túsip, baxıt bergen el. (II tom. 96-bet), Aytshı, kóp jasağan *taynapır emen*, Bunsha mıqlı, sawlatlısañ ne degen? (II tom. 97-bet), Tıñlar edi *maqtañshaq dúnya*, Awzın ashıp, tamsanıp ğana. (II tom. 97-bet).

Misollarda keltirilgan *zañsız soqpaq*, *zañlı turmıs*, *saqıy quyash*, *taynapır emen*, *maqtañshaq dúnya* epitetlari shoirning shaxsiy ijodiy laboratoriyasida tug'ilgan va badiiy obrazlilikni ta'minlashda shoir she'r qatorlarida ishlatgan.

Mazkur bobning to'rtinchi fasli «**Qayta nomlash (perifrazalar)**» deb nomlanadi. Qayta nomlash yoki ilmiy til bilan aytganda perifraza usuli – poetik badiylashtirish vositalari ichida ekspressiv ta'siri kuchli bo'lib, badiiy adabiyotda, publitsistikada va sheshenlik so'z (oratorlik) san'atida keng qo'llaniladigan tropning bir turi. Perifraza – grek tilidan olingan bo'lib, «so'z ko'rki» («украшение речи») degan ma'noni anglatadi. U tilning ravshanligini, aniqligini, badiiy obrazlilikini hamda ixchamliligini ta'minlaydigan leksik birlik yoki badiylashtirish vositalaridan biri. So'zlarni perifraza usulida qo'llanish bir narsaning yoki hodisaning nomlanishini, uning o'ziga tayangan holda, boshqa kinoyali ma'noda tasvirlash hisoblanadi.

I.Yusupov lirikasida qo'llanilgan perifrazalar son jihatidan ham, badiiy obrazlilik jihatidan ham ajralib turadi. Uning ijodida perifrazalarning yakka mualliflik turlari ham umumxalq tilga xos bo'lgan perifrazalar ham qo'llaniladi.

Qozoq filologiyasida perifraza masalasi bo'yicha G.Usenbaevaning «Perifrazaning til xususiyati» deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida perifrazaning til xususiyatini ochib berishga harakat qilib, perifrazaning metaforik, metonimik, sinekdoxalik, evfemistik, sinonimik turlari mavjud ekanligini ta'kidlab, ularni tasnif qilib, jasalish yo'llari hamda badiiy obrazlilik jihatlariga to'xtalgan.⁴² Shunday qilib, perifrazaning metaforik, metonimik, sinekdoxalik hamda evfemistik turlari mavjud ekanligini anglash mumkin. Biz ham mana shu usul bilan I.Yusupov lirikasida ishlatilgan perifrazalarni qayta nomlash (perifrazalik) va ko'chish (metaforik, metonimik, sinekdoxalik, evfemistik) usullari bilan qo'shma tropik ma'no yuklanganini aniqlab metaforik perifraza, metonimik perifraza, sinekdoxalik perifraza va evfemistik perifraza deb 4 kichik guruhga ajratib o'rganishni maqsad qildik:

Metaforik perifrazalar badiiy asarlarda, og'zaki nutqda va folklor asarlarda ham keng qo'llaniladi. Masalan: Sizdi kórsem, bir kúsh tasıp boyıma, *Jaslıq sellerine* sayday tolaman (II tom. 5-bet) Qosıq tartqan qárwan jolımızdağı, Kósh basında barar *qızıl narısız*. (II tom. 5-bet)

Shoironing bu she'r satrlaridagi “*yoshlik sellari*”, “*qizil nor*” kabi so'z birikmalarini metaforik perifrazalar deb o'ylaymiz, chunki metaforizatsiya usuli bilan

⁴¹Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. Ленинград: Наука, 1977. // <https://www.jstor.org/stable/43668685>

⁴² Усенбаева Г. Перифраздардың тілдік табиғаты. – Алматы: Санат, 1996. – 214 б.

qayta nomlanib perifraza bo‘lib turganiga gumon yo‘q. Shoir lirikasida bunday metaforik perifrazaga ko‘plab misol keltirish mumkin.

Metonimik perifrazalar. Bu haqda B.V.Tomashevskiyning “Стилистик и стихосложение” deb nomlangan ishida «metonimiyani rivojlantirishdan perifraz kelib chiqadi (periphrezo – qayta nomlash)»⁴³ - deb atab o‘tadi. Masalan: Tayansa analar besik tayansin, *Baldoq tayanganlar* biyshara bolar. (II tom. 310-bet) *Zang-zakon* piyada qalip, Bándirgide turadı eken. (II tom. 311-bet) Sóz bar “*saqlangandi saqlarman*” degen, Bárin ilajlaydı deni saw adam. (II tom. 342-bet)

Ushbu she‘r satrlarida “*baldoq tayanganlar*”, “*zang-zakon*”, “*saqlanganni*” singari metonimik perifrazalar qo‘llanilgan. Misollarda ko‘rinib turganidek, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni bevosita o‘z nomi bilan atamay, uni ko‘chma ma’noda badiiylashtirib, obrazli tarzda ishlatilgan. “Zang-zakon piyoda qolib, bekatlarda turar ekan” jumlasida “*Zang-zakon*” metonimik perifrazada qonuniy yo‘l bilan yurgan, qilmish, poraxo‘rlik, birovning haqini yeyish bilan shug‘ullanmaydigan halol inson tushuniladi.

XULOSA

Biz dissertatsiya ishimizda I.Yusupov ijodida troplarning badiiy xizmati shoir lirikasining poetik tili orqali qoraqalpoq adabiy tilining rivojlanishi, «yakka troplari», jonlantirish (olitsetvoreniya) orqali yasalgan metaforalar, zotlashish orqali yasalgan metaforalar, diqqatni o‘zgartirish (otvlecheniya) orqali yasalgan metaforalar va troplarning obraz yaratishdagi xizmatini o‘rganib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Lirik asar matnidagi badiiylashtirish vositalari: troplar va uning turlari; perifrazlarning qo‘llanilishi, o‘xshatishlar, metaforalar, obrazli epitelar va poetik sinonimlarning ishlatilishi ularning badiiy xizmati bilan birga ekspressiv-emotsional ahamiyatga ega. Lirik asarlarda so‘zlarga har xil ma’no berib, badiiylashtirib qo‘llanish orqali shoirlar hayot haqiqatini jonli, badiiy obrazli tarzda tasvirlaydi. O‘quvchilarning tiliga, qalbiga oson va tez yetib borishi va o‘qilishini ta’minlaydi. Muallif obrazli badiiy so‘zlarni qo‘llash orqaligina o‘z uslubini shakllantiradi.

2. I.Yusupovning poetik ijodi milliy va badiiy tilimizning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shoir lirik asarlari bilan butun olamni obrazli hamda badiiy ifodalaydi, unga o‘zining dunyoqarashini bildiradi. Adib xalq tilining takomillashgan shakllari, badiiy leksika namunalaridan mohirlik bilan foydalangan va poetik til boyligi, badiiy go‘zalligi, ijodining serqirraligi, obrazlilik alohida ko‘zga tashlanadi.

3. I.Yusupov lirikasida shaxsiy troplar, ayniqsa, metaforik tasvirlash usullari mohirlik bilan qo‘llanilgan. Hayot haqida falsafiy tafakkur – xulosalarini, ijtimoiy-siyosiy voqealarga qarashlarini bildirishda metaforik tasvirlash usulidan foydalanadi.

4. I.Yusupovning lirik asarlarida ishlatilgan jonlantirish orqali yasalgan metaforalar hayot, jamiyat, tabiat va inson ruhiy olamidagi hodisalarning badiiy tasviri hisoblanadi. Mana shu hodisalarning badiiy aks ettirilishi asarning badiiyligini

⁴³ Томашевский Б.М. Стилистика и стихосложение. – Ленинград: Учпедгиз, 1959. С.234

taminlashda, uning mazmun tengligini yuzaga chiqarishda jonlantirish orqali yasalgan metaforalarning ahamiyati juda katta. Jonlantirish metaforasi badiiy asarning qimmatini, badiiyligini yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri hisoblanadi. O‘rinli qo‘llanilgan metaforalar ijodkorning niyatini, maqsad qilgan g‘oyalarini, his-tuyg‘ularini ham badiiy ifodalay olgan.

5. I.Yusupov asarlarida ijtimoiy-siyosiy voqealarga, tabiat hodisalariga munosabatlarini bildirishda, lirik qahramon ruhiy kechinmalarini ifodalashda metaforalardan mohirlik bilan foydalanildi. Shoir hayot haqiqati asosidagi hayot falsafasini tasvirlashda metaforalardan unumli foydalangan. Shoir lirikasida zotlashish orqali yasalgan metaforalar badiiylikka erishish shartlaridan biri hisoblanadi.

6. Adib o‘z asarlarida ijtimoiy-siyosiy voqealarga, tabiat hodisalariga munosabatlarini hamda lirik qahramonning ichki kechinmalarini tasvirlashda e‘tiborni o‘zgartirish metaforalaridan samarali foydalangan. U turmush haqiqati asosidagi hayot falsafasini tasvirlashda metaforalardan o‘rinli foydalanganining guvohi bo‘lamiz.

7. I.Yusupov lirikasida metonimiyalar voqea-hodisalarni, ularning ba‘zi tomonlarini oydinlashtirish, alohida, ixcham va obrazli tasvirlash, asarning emotsional ta’sirchanligini ta’minlash uchun qo‘llanilgan.

8. Shoir qahramon obrazlarini, ularning turli xulq-atvorini, ta’rifini, xarakterini, qarashlarini, psixologik holatini, portretini, shuningdek, predmetlarni, voqealarni badiiy tasvirlashda, badiiy-estetik ta’sir etishda epitetlardan mohirlik bilan foydalangan.

9. I.Yusupov lirikasida o‘xshatishlar har xil shaklda ishlatilgan. Shoir she’r yaratish texnikasida poetik shakllardan, shu jumladan, o‘xshatishlarning har xil usullaridan foydalanib, qo‘llana olishi uning har tomonlama takomillashgan va mukammal she’r yaratish san’atini, poetikani yetuk egallaganligidan darak beradi. Shoir poetikasining siri ta’rifining, tabiiy hodisaning tashqi qiyofasini obrazli tasvirlash bilan cheklanib qolmasdan, bu badiiy obrazli tasvirlashlar lirik qahramonning his-tuyg‘ularini, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarning ichki mazmunini badiiy tasvirlash bilan bog‘lanib ketadi.

10. I.Yusupov lirikasida perifrazalarning bir necha turlari uchraydi. Shoirning poetik olamida ishlatilgan perifrazalar obraz yaratishda, badiiyligni ta’minlashdagi va emotsional-ekspresiv vazifasi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01. ПРИСУЖДАЮЩИЙ
НАУЧНЫЕ СТЕПЕНИ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ОТЕПБЕРГЕНОВА ГУЗЗАЛ ОМИРБАЕВНА

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ФУНКЦИИ ТРОПОВ В ЛИРИКЕ И.ЮСУПОВА

10.00.12 – Каракалпакская литература

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по филологическим наукам

Нукус – 2025

Тема диссертации Доктора философии (PhD) зарегистрирована под № В2023.2.PhD/Fil3691 Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете.

Автореферат диссертация размещен в веб-сайте Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)).

Научный руководитель:

Оразымбетов Куанышбай
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Бекбергенова Зияда Утеповна
доктор филологических наук, (DSc) профессор

Дабылов Пердегалий Абатбаевич
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится в 14⁰⁰ часов "15" 09 2025 года на заседании Научного Совета DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, город Нукус, ул. Ч.Абдилова, дом №1, Тел.: (99861) 223-59-25), факс: (99861) 223-59-25, e-mail karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрирован под № 240). Адрес: 230112, город Нукус, ул. Ч.Абдилова, дом №1, Тел.: (99861) 223-59-25).

Автореферат диссертации был разослан «29» 12 2024 года.
(Протокол реестра № 11 от «29» 12 2024 года).



П.Ф.Нажимов
и.о. председатель научного совета,
присуждающего научные степени, д.ф.н.,
профессор

Ж.О.Танирбергенов
ученый секретарь научного совета,
присуждающего научные степени, доктор
философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент

З.Бекбергенова
председатель научного семинара при научном
совете, присуждающего научные степени,
д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом литературоведении сегодня особое внимание уделяется изучению вопросов о роли поэтического языка, своеобразия поэтического мира, средств художественной выразительности, используемых в произведениях поэтов, способов художественного изображения в создании приятной атмосферы, обеспечении эстетической функции и обогащении идеологического содержания. Как известно, как в фольклорных произведениях, так и в творчестве современных поэтов тропы продуктивно и эффективно используются для обеспечения художественности произведения, обогащения глубокого идейного содержания и выполняют поэтическую функцию. Важно сделать практические выводы о роли средств художественной выразительности в поэтическом языке, передаче эмоций и мысли, образности слов, различных смысловых изменениях, эстетическом воздействии в лирическом произведении.

В мировом литературоведении большое внимание уделяется также изучению национальной литературы новым методом. Известно, что поэтический язык был очень важным явлением в истории искусства слова, особенно в лирике. В лирических произведениях тропы служат средством расширения семантических возможностей употребления слов, углубления и обогащения идейного содержания, придания словам эмоциональности, выразительности, образности. Наряду с изучением художественной функции тропов в поэтике, существенно возрастают стремления в области изучения их функций, связанных с образным определением явлений, раскрытием внутреннего мира лирического героя, комплексного изучения художественности в лирике, формулирования теоретических выводов, что подчеркивает актуальность выбранной темы.

В процессе социально-экономических и культурных преобразований в последние годы независимости в нашей стране формирование национальной духовности послужило для всестороннего воспитания личности в обществе, она (национальная духовность) вступила на путь развития, основанный на тенденции «Внимание к литературе, искусству и культуре — это, прежде всего, внимание к нашему народу, внимание к нашему будущему»¹. Научные работы, проводимые по изучению лирических произведений И.Юсупова, его поэтического мира, художественной функции тропов, использованных в произведениях поэта, занимает особое место в воспитании зрелого, всесторонне развитого молодого поколения. Так как произведения поэта по сей день оказывают литературное влияние на развитие духовного мира нашего народа.

Диссертация в определенной степени служит реализации задач, отмеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан, в частности №УП-4958 от 16 февраля 2017 года «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования», №УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», №ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О программе

¹Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир» / Халқ сўзи. – Тошкент: 2017. 4 август, 153 (6847).

комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», №ПП-3652 от 5 апреля 2018 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности союза писателей Узбекистана», а также в других нормативно-правовых документах, касающихся данного направления.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В филологии поэтический язык лирики, художественные средства и методы изучаются с точки зрения лингвистики и литературоведения. Следует особо отметить научные исследования по изучению поэтического языка художественного произведения, теории художественных тропов, их функции обеспечения художественности и образности, а также функции передачи различных эмоций и мысли, которые были проведены в мировом языкознании такими учеными, как В.М.Жирмунский, А.Квятовский, В.В.Виноградов, А.Н.Веселовский, С.Бочаров, Н.К. Гей, Н.А.Туралина, Н.С.Трифорова, В.К.Харченко, Д.Г.Шаталов, Е.П.Дулесов, Шарл Балли, Ж.Вардзелашвили, Ортега Хи Гоосет, А.М. Оганьян, Ю.В. Цинковская, Э.Кассирер, А.А.Потебня, Ф.М.Селиванов, А.Г.Варонова, С.А. Губанова, Н.Г. Серебренникова и т.д.² Научно-теоретические заключения этих ученых, особенно их взгляды на определение художественной функции тропов, не потеряли своей значимости по сей день.

В литературоведении тюркских народов, ученые Б.Саримсоков, У.С.Кобулова, Р.Кунгуров, Г.Кобулжонова, Ш.Махмараимова, Б.Хасанов, А.Сыбанбаева, Ж.К. Боранбаева, С.Карибаева, Л.Нуржекеева, Т.Коньров, С.Ибрагимов, К.Бабаев и др. проводили научно-исследовательские работы по

² Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Наука, 1963. 256 с.; Избранные труды. Поэтика русской литературы. – Москва: Наука, 1976. 512 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. 406 с.; Бочаров С. Поэтика Пушкина. – Москва: Наука, 1974. 206 с.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. 408 с.; Квятовский А. Поэтический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. 376 с.; Гей Н.К. Художественность литературы. Поэтика. Стил. – Москва: Наука, 1975. 472 с.; Туралина Н.А. Именная метафора в русской поэзии начала XX века. Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Белгород, 2000.; Трифанова Н.С. Метафора в ранней лирике Анна Ахматовой: «Вечер» - «Белая стая» - Anno-Domini. Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Екатеринбург, 2005.; Харченко В.К. Функции метафоры. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. 96 с.; Шаталов Д.Г. Метафорическое осмысление перевода. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Воронеж, 2014.; Дулесов Е.П. Метафора в парламенском дискурсе (на материале речей российских депутатов начала XX в) Автореф. дис. ... докт. филол. наук. Ижевск, 2019.; Шарл Балли. Французская стилистика. – Москва: Государственное издательство иностранной литературы, 1961. – с 394.; Вардзелашвили Ж. О двойной сущности метафоры // Санкт-Петербургский государственный университет и Тбилисский государственный университет. Научные труды. Серия: филология. Выпуск IV. – СПб-Тб., с.66-67.; Ортега Х и Гоосет. Две великие метафоры // Теория метафоры. Сборник, – Москва: Прогресс, 1990. - с 68-81.; Оганьян А.М. Метафора как основной троп поэтический речи: на материале: англоязычной поэзии XX века. Диссертация на соискание ученой степени кандидата наук. – Москва, 2006. – с.206.; Кассирер Э. Сила метафоры // Теория метафоры.Сборник, – Москва: Прогресс, 1990. - с 41-42.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – с.341.; Варонова А.Г. Эпитеты и определение в языке Камознса: Автореф. дисс.канд. филол.наук. – Москва, 1999.; Губанов С.А. Эпитет в творчестве М.И.Цветаевой: семантический и структурный аспекты: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Самара, 2009.; Серебренникова Н.Г. Механизм эпитета: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Тамбов, 2002.

изучению структурных типов тропов в художественных произведениях, их стилистического, художественно и эстетического воздействия, эмоционально-экспрессивной функции, а также роли в обогащении идейного содержания произведения³.

В каракалпакском литературоведении научных исследования ученых С.Ахметова, К.Максетова, К.Мамбетова, А.Бекбергенова, К.Жаримбетова, К.Оразымбетова, Б.Генжемуратова, Ш.Абдиназимова, П.Нажимова, Б.Юсуповой, Е.Алланазарова и т.д. посвящены изучению некоторых вопросов, связанных с художественной функцией тропов в произведении⁴.

